



QADIMGI BAQTRIYA DAVLATIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOT

Toshtemirov Abduvalixon Abdivohid og'li

Ostanaqulov Azizbek Samijon o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabalari

abduvalixontoshtemirov@gmail.com

azizbekostanaqulov06@gmail.com

Abstract: This article mainly provides information about the formation, borders and socio-economic life of the ancient Bactrian state. In addition, information about the ancient Bactrian state, provided by ancient Greek scholars and Avesta sources, military campaigns carried out by this state, as well as the politics and cultural life of the Bactrian state during the Achaemenid dynasty, is given.

Key words: Bactria, Herodotus, Achaemenid state, Ctesius, Sugdiyona, Greco Bactria, Demetrius, Greek writing, Hellenism, Qiziltepa, Badakhshan.

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan, Qadimgi Baqtriya davlatining tashkil topishi, chegaralari va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek qadimdan ma'lum bo'lgan Baqtriya davlati haqida qadimgi yunon olimlari va Avesto manbalarida keltirilgan ma'lumotlar, bu davlat tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar, shuningdek Ahamoniylar sulolasi davrida yuritilgan siyosat va Baqtriya davlatining madaniy hayoti haqida to'liq ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Baqtriya, Gerodot, Ahamoniylar davlati, Ktesiy, Sug'diyona, Yunon-Baqtriya, Demetriy, yunon yozuvi, ellinizm, Qiziltepa, Badaxshon.



Абстракт: В данной статье в основном представлены сведения об образовании, границах и социально-экономической жизни древнего Бактрийского государства. Кроме того, приводятся сведения о древнем Бактрийском государстве, предоставленные древнегреческими учеными и источниками Авесты, военные походы, проводившиеся этим государством, а также политика и культурная жизнь Бактрийского государства во времена династии Ахеменидов.

Ключевые слова: Бактрия, Геродот, государство Ахеменидов, Ктесий, Сугдияна, Греко-Бактрия, Деметрий, греческая письменность, эллинизм, Кызылтепа, Бадахшан.

Kirish. Hozirgi Afg'onistonning shimoli-sharqi, O'zbekistonning janubiy va Tojikistonning janubi-g'arbida joylashgan hududlar turli yozma manbalarda Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Bahli, Bahlika Tuholo kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Zamonaviy adabiyotlarda uni Baqtriya deb atash e'tirof etilgan "Shoxnoma" da Baxtar zamin, qadimgi Turkiylarda Bahodirlar yurti. Mil. avv. 700-540-yillar qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo'lib, bu yirik davlatning hududiy chegaralari: Murg'ob vohasi, Hindikush tizmasi, Badaxshon, Nurota tizmasi va Buxoro hududlariga borib taqalgan bo'lishi mumkin. Bu davrda Baqtriya viloyatlariga qadimgi Xorazm davlati va Sak-Massagetlarning harbiy-siyosiy uyushmasiga tegishli o'lkalar chegaradosh bo'lgan.¹

¹ A. Sagdullayev, B. Aminov, U. Mavlonov, N. Norqulov "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti" T. 2000. 23-b



Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Baqtriya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo'yicha Bahodir Eshov, Anatoliy Sagdullayev, B. Aminov, U. Mavlonov, N. Norqulov, Edvard Rtveladze kabi tarixchi va olimlarning asarlarida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ushbu tarixchi olimlarning asarlarida Baqtriya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan tortib madaniyati, jamiyat rivojlanishi, siyosiy tuzilmalari, iqtisodiy resurslari, davlat boshqaruvi, siyosiy tarixi kabi masalalar bayon etilgan. A. Sagdullayev, B. Aminov, U. Mavlonov, N. Norqulovning "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti" **asari** O'zbekistonning qadimgi davlatchiligi, jamiyatining rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini o'rganadi. Baqtriya davlati haqida ma'lumotlar bu kitobda alohida ko'rsatilmagan bo'lsa-da, umumiy tarzda Markaziy Osiyo mintaqasidagi qadimiy davlatlarning siyosiy va iqtisodiy hayoti bo'yicha tahlil o'tkazilgan. Baqtriya davlati ham, ehtimol, ushbu jarayonlarning bir qismi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Aytgancha, Baqtriyaning hududi, iqtisodiy resurslari va siyosiy tuzilmalari haqida ba'zi dalillar bu asarda aks etgan bo'lishi mumkin. B. Eshovning "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi" asarida esa O'zbekiston davlatchiligining rivojlanish jarayonlarini ko'rsatadi. Baqtriya davlati O'zbekistonning qadimgi davlatlar tizimiga kirmaydi, ammo Eshovning tahlillarida Markaziy Osiyo xalqlarining davlatchilik tizimlari umumiy ravishda yoritilgan. Baqtriya davlati haqida alohida ma'lumotlar mavjud emas, lekin uning boshqaruv tizimi va ijtimoiy strukturasini tushunishga yordam beradigan qiyosiy yondashuvlarni taklif etadi. E.V. Rtveladzening "O'zbekistonning tarixiy o'tmishi" asarida O'zbekiston tarixining qadimgi davrlari haqida to'liq tasavvur beradi. Baqtriya davlati haqidagi ilmiy qarashlarni chuqur tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi, chunki bu kitobda Markaziy Osiyo mintaqasidagi qadimiy davlatlar haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Rtveladze, shuningdek, Baqtriya davlati iqtisodiy tuzilmasi, tarmoqlari va ijtimoiy tashkilotlari haqida ilmiy yondashuvni ishlab chiqqan. U ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning asosiy jihatlari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, B. Eshovning "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi



tarixi" asarida Baqtriya davlati boshqaruvi va siyosiy tuzilmasi haqida alohida qismlar mavjud bo'lib, u erda Baqtriyaning o'ziga xos boshqaruv shakllari va iqtisodiy rivojlanishi haqida batafsil tavsiflar keltirilgan. Bu manba Baqtriya davlatining harbiy va siyosiy tizimini tushunishga yordam beradi. Eshovning asarida Baqtriya bilan bog'liq tarixiy manbalarni qayta ishlash va ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yanada chuqurroq o'rganish imkoniyati mavjud. Baqtriya davlati va uning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida yozilgan adabiyotlar, asosan, Markaziy Osiyo tarixiga oid umumiy tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu adabiyotlar Baqtriyaning iqtisodiy tuzilishi, boshqaruv tizimi va jamiyatning ijtimoiy strukturalarini o'rganishga asos bo'ladi. Bunday tahlil metodologiyasi Baqtriya davlati haqida aniq ilmiy natijalar chiqarishga imkon beradi.

Muhokama va natijalar. Mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmi Baqtriya hududlarida ko'pgina tarixiy- madaniy o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bu o'zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog'liq edi: 1. Temir buyumlarning paydo bo'lishi va keng tarqalishi. 2.Qal'alari bo'lgan qishloqlarning paydo bo'lishi va keyin ularning shaharlarga aylanishi. 3.Moddiy madaniyatning sezilarli darajada o'zgarishi.4. Sharqiy Eron qabilalarining migratsiyasi.² Mil.avv VI asrning uchinchi choragi o'rtalaridan boshlab va to eramizning 330-yillariga qadar Baqtriya o'zboshimcha hokimlik huquqi asosida Ahamoniylar saltanati tarkibiga kirgan. Mil.avv. 329-327-yillarda u Iskandar Makedonskiy tomonidan zabd etilgan. Mil.avv. 306-yildan to mil.avv. III asr o'rtalariga Baqtriya hududida Yunon-Baqtriya shohligi yuzaga keladi va qarib yuz yil hukmronlik qadar Salavkiylar shohligiga bo'ysungan. Mil.avv. III asr o'rtalarida qiladi. Mana shu davrda Baqtriyada ko'plab shaharlar bunyod bo'ldi, elinizmning kuchi ta'siri ostida, mahalliy asoslarga tayangan holda, moddiy va ma'naviy madaniyat yuqori darajada ko'tarila boshlagan.³ O'rta Osiyo viloyatlarining madaniy o'xshashliklariga sabab xalqlarning qo'shni qarindoshligi,

² B. Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi" T. 2012. 47-b

³ E.V.Retveladze "O'zbekistonning tarixiy o'tmishi" T. 2009. 10-b



umumiy urf odatlari, tili, savdo-sotiq, madaniy aloqalari, janubdagi yuqori darajada rivojlangan madaniyatning ta'siri, janubiy aholi bir qismining Xorazm chegaralari yaqinida istiqomat qilishi va aynan viloyat hududiga tarqalishi deb faraz qilingan. Agar ko'rsatib o'tilgan fikrlar, jumladan, keyingisi to'g'ri bo'lsa qabilalarning ichish jarayoni Fors podshosi Kir II ning yurishlaridan ancha oldin boshlangan. Janubiy viloyatlarning vakillari va mahalliy aholisining qo'shilishi natijasida yangi madaniyat va etnik jarayonlar vujudga kelishi mumkin edi. Bu vaziyat arxeologik va antropologik ma'lumotlariga ko'ra O'rta Osiyo va xususan O'zbekiston hududida bronza davrida va mil.avv. I ming yillikning boshlarida ancha taraqqiy topgan. A.Sagdullayevning tadqiqotlariga ko'ra Baqtriya haqidagi turli ma'lumotlar qadimgi Yunon tarixchilari Geradot, Ktesiy, Arrian, Strabon, Kvint Kursiy Ruf, Fosfor, Pliniy kabilarning asarlarida ham mavjud bo'lib ular bu podsholikning qadimiyligi va yuksak madaniyati haqida ma'lumotlar beradi. Yozma manbalar ma'lumotlari ko'p xollarda arxeologik ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi. Arxeologiya ma'lumotlarining guvohlik berishicha mil.avv. VII-VI asrlarda Baqtriyada shaharlar shakllana borgan edi. Oltindilyortepa (Aorn), Baqtriya (Boloyi Hisor) va Qiziltepa kabi ko'hna shaharlar mustahkam himoya devorlar bilan o'rab olindiki, ular bu hududlarda davlatchilik rivojlanishining asosi edi. Ish bu viloyatining pul xo'jaligida Dimetriyning tangalariga taqlidan chiqarilgan mayda bronza va kumush tangalar muayyan o'rin egallagan. Shimoliy Baqtriyaning Yuechji hukmdorlari yirik qiymatli kumush tangalar zarb qilmagan, biroq E.Zeymal ko'rsatganidek uning nuqsoni ehtimolki milodiy I asr boshigacha hamon muomilada bo'lgan Yunon-baqtriya kumush tangasi bilan to'ldirilgan. Viloyat aholisi eramizdan avvalgi I ming yillik - eramizning I asri boshlarida asosan Sharqiy Eron tillaridan birida gaplashadigan Baqtiriyaliklardan iborat bo'lgan. Eramizdan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan boshlab bu yerda kelib chiqishi chet elliklar yozuviga xos bo'lgan mixxat, oromiy yozuvlari paydo bo'la boshlagan. Er. avv. IV-III asrlarda esa yunon yozuvi amalda bo'lgan. Kushon shohi Kanishka yoki uning o'tmishdoshi Kadfiz II davrida, yunonchaga asoslangan holda shakllangan va to VIII-IX asrlargacha amalda qo'llab kelingan, Baqtriya



yozuvi muomalada bo'lgan. Antik davrda va ilk o'rta asrlarda Baqtriya-Tohariston madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida sharqning ilg'or sivilizatsiyasi va ellinistik olam qo'shgan munosib hissalari alohida o'rin tutadi.⁴

Xulosa. Qadimgi Baqtriya davlati nafaqat Markaziy Osiyo tarixida, balki butun dunyo tarixida muhim o'rin egallagan davlatlardan biridir. Bu davlatning yuksak madaniyati, rivojlangan savdo va iqtisodiy aloqalari, ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi hamda harbiy strategiyalari uning tarixiy ahamiyatini yanada oshirgan. Baqtriya qadimiy davrlarda Sharq va G'arb madaniyatlari chorrahasida joylashganligi tufayli madaniy va iqtisodiy aloqalar markaziga aylangan. Baqtriyaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti savdo karvonlari, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va shaharlardagi rivojlanish bilan ajralib turadi. Davlatning yirik savdo yo'llari ustida joylashgani uning iqtisodiyotini mustahkamlashga yordam bergan. Shu bilan birga, aholi o'rtasida tabaqalanish mavjud bo'lgan, bu esa ijtimoiy tizimni murakkablashtirgan. Xulosa qilib aytganda, Qadimgi Baqtriya davlati madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda yuksak darajaga erishgan, bu esa uning tarixda alohida o'ringa ega bo'lishiga sabab bo'lgan. Uning tarixi bugungi kun avlodlari uchun qadimiy sivilizatsiyalarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Sagdullayev, B. Aminov, U. Mavlonov, N. Norqulov "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti" T. 2000. 23-b
2. B. Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi" T. 2012. 47-b
3. E.V.Retveladze "O'zbekistonning tarixiy o'tmishi" T. 2009. 10-b
4. B. Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi" T. 2012. 49-b
5. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.

⁴ B. Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi" T. 2012. 49-b



6. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
9. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
10. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
11. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
12. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
13. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
14. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.